

# **“Yangi Konstitutsiya: Yangi O‘zbekistonning huquqiy asosi”**

*Sharifly Nuriddin Sobir o‘g‘li  
Toshkent Davlat Agrar Universiteti assistant o‘qituvchisi*

*Mirzaqulova Ruxsora Ulug‘bekovna*

*Toshkent Davlat Agrar Universiteti*

*Bakalavr 1- kurs*

*+998 94 583 28 24*

**ANNOTATSIYA:** Mazkur maqola O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, uning huquqiy, ijtimoiy va demokratik davlatni shakllantirishdagi roli hamda mustaqil davlat taraqqiyotidagi ahamiyati haqida so‘z yuritadi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning qabul qilinishi, xalq tomonidan ko‘rilgan faol ishtirok, shuningdek, uning mazmunida inson huquq va erkinliklarini ta’minlashning yangi mexanizmlari, ijtimoiyadolat prinsiplarini joriy qilish va xalq manfaatlarini aks ettiruvchi tamoyillar batafsil yoritiladi.

**АННОТАЦИЯ:** В данной статье говорится о Конституции Республики Узбекистан, ее роли в становлении правового, социального и демократического государства и ее значении в развитии независимого государства. Будут освещены принятие новой редакции Конституции, активное участие народа, а также новые механизмы обеспечения прав и свобод человека, внедрение принципов социальной справедливости и принципов, отражающих интересы народа. подробно.

**ABSTRACT:** This article discusses the Constitution of the Republic of Uzbekistan, its role in the formation of a legal, social and democratic state, and its significance in the development of an independent state. The adoption of the new Constitution, the active participation of the people in it, as well as the new mechanisms for ensuring human rights and freedoms, the introduction of the principles of social justice, and the principles reflecting the interests of the people are discussed in detail.

**Kalit so‘zlar:** Konstitutsiya, Yangi O‘zbekiston, Huquqiy davlat, Inson huquqlari, Ijtimoiyadolat, Demokratik tamoyillar, Yoshlar huquqlari.

**Ключевые слова:** Конституция, Новый Узбекистан, Верховенство закона, Права человека, Социальная справедливость, Демократические принципы, Права молодежи.

**Key words:** Constitution, New Uzbekistan, Rule of Law, Human Rights, Social Justice, Democratic Principles, Youth Rights.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi vatanimiz mustaqilligi, xalqimiz tinch osoyishta hayoti, fuqarolarning huquq va erkinliklarining mustahkam huquqiy kafolatidir.

Har bir davlat o‘z taraqqiyot yo‘lini tanlar ekan, xalqning xohish va irodasidan kelib chiqib tinch va farovon turmush tarziga huquqiy asos bo‘luvchi tartiblarni asosiy qonunida mustahkamlab oladi. Asosiy qonunda bayon etilgan tartiblar shu qadar ahamiyat kasb etadiki, hech bir fuqaro usiz yashay olmaydi, negaki insonning kundalik to‘qnash keladigan muammolari yechimi bevosita unga bog‘liq bo‘ladi. Shiddat bilan o‘zgarayotgan dunyoda ro‘y berayotgan geosiyosiy vaziyatlar, eng avvalo, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi va unda belgilangan maqsadlarni amalga oshirish uchun nafaqat qonunlarimiz mustahkamlanishi, balki konstitutsiyamizda ham inson sha’ni, uning qadr-qimmatini yuksaltirishga qaratilgan normalarni yanada takomillashtirib, bugungi kun talablariga moslashtirish ehtiyojini paydo qildi. Natijada xalqimizning taklif va mulohazalarasi asosida yangilangan konstitutsiya loyihasi ishlab chiqilib, umumxalq muhokamasiga qo‘yildi. Muhokamalar yakunida mamalakatimiz tarixida birinchi marta bosh qonun xujjati referendumda bevosita xalq tomonidan qabul qilindi. Bosh qonunimizga tegishli o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar milliy qonunchiligidimiz qadryatlarimiz, o‘zbek davlatchiligining tarixiy tajribasi hamda jamoatchilik takliflari, zamonaviy xalqaro standartlar va eng ilg‘or xorijiy tajribani o‘rgangan holda kiritildi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya Yangi O‘zbekiston Strategiyasini amalga oshirishning siyosiy- huquqiy asoslarini yaratib, milliy davlatchilik taraqqiyotining tarixiy muhim bosqichida davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab beradi. Xususan Konstitutsiyada davlat qurilishining yangi strategik maqsadi ijtimoiy davlat qurish ekanligi belgilab berildi, ijtimoiy adolat va bardamlik prinsiplari joriy etildi, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning mutlaqo yangi mexanizmlarini nazarda tutuvchi Konstitutsiyaviy asoslar mustahkamlanadi. Hokimiyatlar bo‘linishi prinsipi hamda o‘zaro tiyib turish va manfaatlар muvozanati tizimining zamonaviy konsepsiyasini hisobga olgan holda, oliy majlis, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati o‘rtasida vakolatlar qayta taqsimlandi. Joylarda hokimlar va xalq deputatlari kengashlari vakolatlari taqsimlanishiga asoslangan davlat hokimiyatini tashkil etishning yangi modeli nazarda tutildi. Yangilangan Konstitutsiyamizda barcha qatlam manfaatlari inobatga olinib, uni ishlab chiqishda aholi faol ishtirok etdi hamda ushbu muhim hujjat referendum orqali qabul qilinganligi ushbu hujjatning chinakam xalq Konstitutsiyasi bo‘lganidan dalolat beradi.

Konstitutsiyamiz loyihasini muhokama qilishdan boshlab to uni qabul qilguncha bo‘lgan davrda o‘tkazilgan umumxalq muhokamalarida millionlab

yurtdoshlarimiz faol ishtirok etdilar. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, yangilangan Konstitutsiyamizning chinakam muallifi xalqimiz bo‘ldi, deb aytishga barcha asoslarimiz bor. Eng muhimi, endi islohotlarimiz yo‘lidan hech qachon ortga qaytmaymiz „ inson-jamiyat-davlat “ degan yangi tizim asosida faqat va faqat oldinga qarab boramiz,- dedi Prezident Shavkat Mirziyoyev Yangilangan Konstitutsiyada O‘zbekiston “ijtimoiy davlat” degan tamoyil muhrlanib, davlatning bu sohadagi majburiyatlari bilan bog‘liq normalar 3 baravarga oshdi. Konstitutsiyada O‘zbekiston “huquqiy davlat” degan tamoyil ham qat’iy qilib belgilanib, inson huquq va erkinliklari borasidagi normalar 3 baravarga ko‘paytirildi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya O‘zbekistonning “demokratik davlat” sifatidagi maqomini ham mustahkamladi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi haqida so‘z yuritishdan oldin Konstitutsiya nima? -degan savolga javob berish o‘rinlidir. Konstitutsiya lotincha so‘zdan olingan bo‘lib “constitution” so‘zidan olingab bo‘lib, tuzulish va tuzish degan ma’nolarni bildiradi. Konstitutsiya-davlatning asosiy qonuni hisoblanadi. Konstitutsiya davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari jamiyat va shaxsning o‘zaro munosabatlari, shuningdek, sud tizimini hamda davlat va jamiyatning o‘zaro munosabatlarini belgilab beradi. Qadimgi Rimda ham “Konstitutsiya” atamasi bo‘lgan hamda “Imperator konstitutsiyasi” deb atalgan. Qadimda Sharq va Osiyo hamda Markaziy Osiyo mamlakatlarida Amir Temur tuzuklari konstitutsiyaviy hujjat xususiyatlariga ega bo‘lgan shariat qonunlarini o‘z ichiga olgan. Mustaqilligimizning ilk yillarda qabul qilingan asosiy qonunimiz (O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi) Sharq va G‘arb, Janub va Shimolning 97 ta mamlakati to‘plagan ilg‘or konstitutsiyaviy tajribaga muvofiq hamda jahon davlatlarining konstitutsiyaviy tajribasini bir qator ilg‘or jihatlari hisobga olingan holda, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik kengashi kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar va AQSH, BUYUK BRITANIYA, GERMANIYA, FRANSIYA kabi davlatlar mutaxasislarining ekspertezasidan o‘tgandan so‘ng 1992-yil 8-dekabr kuni Bosh qonunimiz qabul qilingan. Shu kundan e’tiboran, 8-dekabr umumxalq bayrami deb e’lon qilindi. Bundan tashqari, Qomusimizda 1948-yil 10-dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti bosh assambleyasining 217 A (III) ko‘rsatmasi orqali qabul qilingan “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi “ da e’lon qilingan ko‘rsatmalari inobatga olingan. Mustaqil O‘zbekistonning birinchi Konstitutsiyasi yangi mustaqil davlatning huquqiy kafolatlarini shakllantirdi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartirish va qo‘sishchalar kiritish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni loyihasi umumxalq muhokamasiga qo‘yilib, 1-moddasiga o‘zgartirishlar kiritilmoqda. Mazkur loyihaning matniga ko‘ra, “O‘zbekiston suveren respublika, huquqiy, ijtimoiy, demokratik davlat” ekani belgilanmoqda.

Huquqiy davlat-bu demokratik tamoyillar asosida qabul qilingan qonunlar oldida barcha teng va hisobdor bo‘lgan, hech kim qonundan ustun turmaydigan davlat. Qolaversa, qonunlarning butun davlat hududidagi ustuvorligi, hokimiyatlar vakolatining bo‘linishi, shaxs va davlatning o‘zaro ma’sulligi, inson huquqlari va erkinliklarining himoyalanishidir. O‘zbekiston Prezidenti tashabbuslari bilan yoshlar huquqlari mavzusida bir qator anjumanlar ham o‘tkazildi. Xususan, O‘zbekiston prezidentining BMT inson huquqlari bo‘yicha kengashi 46-sessiyasida ilgari surgan tashabbusi asosida 2021-yil 12-13-avgust kunlari Toshkentda “Global harakatlarga yoshlarni jalb qilish” mavzusida bo‘lib o‘tgan Yoshlar huquqlari bo‘yicha butunjahon konferensiysi shular sirasiga kiradi. Milliy qonunchiligidan ko‘ra, 30-iyun O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar kuni etib belgilangan. Shuningdek, 2020-yil 30-iyunda Prezident farmoniga asosan yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshiruvchi vakolatli davlat boshqaruvi organi-O‘zbekiston Respublikasi “Yoshlar ishlar agentligi tashkil etildi”.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 79-modda : “Davlat yoshlarning shaxsiy-iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta’minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag‘batlantiradi. O‘zbekistonda yoshlarga har tomonlama va yuksak g‘amxo‘rlik ko‘rsatish masalasi davlat siyosatining ustuvor sohalaridan biri hisoblanadi. Aholining teng yarmidan ko‘pini tashkil etuvchi yoshlar jo‘shqin va serg‘ayrat ekani, mamlakatimizning zamonaviy asoslarda yanada taraqqiy etishining tayanch kuch-qudrati sanalgani uchundavlatimiz va jamiyatimizning doimiy e’tiborida bo‘lib kelmoqda. Ayniqsa, yangi tahrirdagi Konstitusiyamizda yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini har tomonlama qamrab olish hamda keng kafolatlashga alohida bob yaratildi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, O‘zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasi Yangi O‘zbekistonning siyosiy-huquqiy asoslarini mustahkamlaydi. Ushbu hujjat xalq xohishi asosida qabul qilinib, inson qadr-qimmati, huquq va erkinliklarini ta’minlashning ilg‘or mexanizmlarini joriy etdi. Yoshlar manfaatlariga alohida e’tibor qaratilishi, davlatning ijtimoiy tamoyillari mustahkamlanishi va xalqaro tajriba inobatga olinishi Konstitutsiyani zamonaviy davlat tuzilmalarini takomillashtirishda muhim hujjatga aylantiradi. Shu bois, Konstitutsiya nafaqat xalqning o‘zligini anglatadi, balki mamlakatimizning xalqaro maydondagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qiladi.

**Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi,**

**ekologiya va atrof muhit muhofazasi va kimyo fakulteti**

**Mardonova Feruza Ilhomjon qizi**